

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№11

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025 noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 296 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimatrov Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиёв Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Iloxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdusalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI.....	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI.....	203
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ МАЛОГО БИЗНЕСА КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	210
Бозорова Озода Рахимовна	
ТЕМИРБЕТОН КО'РРИКЛАРДАГИ BURDALANGIN BETONDAN OLINGAN CHAQIQ TOSHNI KOMPLEKS TADQIQOT QILISH.....	222
Salixanov Saidxon Salixanovich, Kenjayev Temurbek Olimjonovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH USULLARI VA SOF FOYDA KO'RSATKICHIDA AKS ETISH YO'LLARI.....	226
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI	230
Isakov.J.Ya	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH MEZONLARI	238
Faxriddinov Bahriddin	



TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI	243
Raximov Furqat Jalolovich	
BUXORO VILOYATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASI.....	249
Rahmonov Xurshid Xayriddinovich, Atoyeva Mehriyo Ilhom qizi	
KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA UNI YURITISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	254
M.I.Murodova	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI AHOLI DAROMADLARINI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI.....	258
Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li	
INNOVATSION VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOGISTIK XIZMATLAR KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI TAHLILI.....	264
Xalimov Javlonbek Shaxriyorovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQLARNI UNDIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI	271
Muxammadov Nodir Karimovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA EKSPORTBOP MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	277
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich	
IQTISODIYOT VA TA'LIM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA TA'LIM BRENDINGI UCHUN IQTISODIY JIHATLAR.....	282
Dilfuza Shokirova	
OLIY TA'LIM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	291
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	



OLIY TA'LIM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Raximjonova Shohsanam Baxodirovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://orcid.org/0009-0002-4813-36301>

E-mail: dloong1507@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston oliy ta'lim tizimida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) amaliyoti va uni takomillashtirish bo'yicha mavjud holat, muammolar hamda taklif etilayotgan islohotlar ko'rib chiqiladi. Kirish qismida DXShning ta'lim sohasidagi ahamiyati va uning global hamda mahalliy konteksti yoritiladi. Adabiyotlar sharhi bo'limida DXSh tamoyillari, O'zbekistonda DXSh qonunchiligi hamda xalqaro tajriba tahlil qilinadi. Metodologiya bo'limida qo'llangan tadqiqot metodlari va manbalar haqida ma'lumot beriladi. Natijalar bo'limida DXSh loyihalarining oliy ta'limdagi amaliy natijalari (xususan, talaba yotoqxonalari) taqdim etiladi. Tahlil bo'limida ushbu natijalar DXSh modelining afzalliklari va kamchiliklari nuqtayi nazaridan muhokama qilinadi. Munozara bo'limida esa DXSh loyihalarini amalga oshirishda yuzaga keladigan to'siqlar va ularni bartaraf etish bo'yicha taklif etilayotgan chora-tadbirlar, jumladan, qonunchilik hamda institutsional islohotlar ko'rib chiqiladi [3][4]. Yakunda DXSh loyihalarining kelajak istiqbollari e'tibor qaralib, ta'lim infratuzilmasini rivojlantirishdagi roli umumlashtiriladi.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik, oliy ta'lim, ta'lim infratuzilmasi, investitsiya loyihalari, talabalar yotoqxonalari.

Abstract. This article examines the current state, challenges, and proposed reforms related to public-private partnership (PPP) practices in Uzbekistan's higher education system. The introduction highlights the significance of PPPs in the education sector and their global and local context. The literature review section analyzes PPP principles, Uzbekistan's PPP legislation, and relevant international experience. The methodology section provides information on the research methods and sources used. The results section presents practical outcomes of PPP projects in higher education (particularly student dormitories). The analysis section discusses these outcomes in terms of the advantages and disadvantages of the PPP model. The discussion section examines the barriers encountered during the implementation of PPP projects and the proposed measures to address them, including legislative and institutional reforms [3][4]. The conclusion summarizes the future prospects of PPP initiatives and their role in the development of educational infrastructure.

Keywords: public-private partnership, higher education, educational infrastructure, investment projects, student dormitories.

Аннотация. В данной статье рассматриваются текущее состояние, проблемы и предлагаемые реформы, связанные с практикой государственно-частного партнёрства (ГЧП) в системе высшего образования Узбекистана. Во введении освещаются значение ГЧП в сфере образования, его глобальный и локальный контекст. В разделе «Обзор литературы» анализируются принципы ГЧП, законодательство Узбекистана в сфере ГЧП и международный опыт. В разделе «Методология» представлена информация об использованных методах исследования и источниках. В разделе «Результаты» рассматриваются практические результаты проектов ГЧП в сфере высшего образования (в частности, студенческие общежития). В разделе «Анализ» обсуждаются указанные результаты с точки зрения преимуществ и недостатков модели ГЧП. В разделе «Дискуссия» рассматриваются препятствия, возникающие при реализации проектов ГЧП, а также предлагаемые меры по их устранению, включая законодательные и институциональные реформы [3][4]. В заключение обобщается роль проектов ГЧП в развитии образовательной инфраструктуры и рассматриваются их перспективы.

Ключевые слова: государственно-частное партнёрство, высшее образование, образовательная инфраструктура, инвестиционные проекты, студенческие общежития.

KIRISH

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) – davlat va xususiy sektor o'rtasidagi kompleks hamkorlik shakli bo'lib, unda infratuzilma va xizmatlarning qurilishi, moliyalashtirilishi va boshqarilishi birgalikda amalga oshiriladi. Xorijiy tajribada oliy ta'lim muassasalari ko'pincha o'z infratuzilmasini (talabalar yotoqxonasi, laboratoriya, o'quv binosi va qulayliklari) DXSh asosida yangilab boradi. O'zbekiston ta'lim sohasida ham DXSh loyihalari

so'nggi yillarda faollashmoqda. Xususan, 2019-yil 10-may kuni qabul qilingan "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun davlat va xususiy sektor o'rtasidagi aloqalarni qonuniy tartibga solib, DXSh joriy etilishini rag'batlantirdi. Shu orqali davlat iqtisodiyotida xususiy sektor ulushini oshirish maqsad qilingan. Oliy ta'lim tizimida DXSh loyihalari natijalari hamda joriy amaliy ko'rsatkichlari ham ijobiy. Masalan, Vazirlar Mahkamasi qarorlariga muvofiq DXSh loyihalari orqali 57 ta loyiha amalga oshirilib, natijada 29 ming talaba yotoqxonaga bilan ta'minlandi. Bu holat DXSh mexanizmining ta'lim xizmatlari sifatini oshirishda yangi imkoniyat yaratgani va hukumat hamda investorlarni bu jarayonga jalb qilayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, DXSh yordamida infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish va boshqarish davlat xarajatlarini kamaytirish hamda sifatli xizmatni ta'minlashga xizmat qilishi ma'lum bo'lib, EY tadqiqotlari bunga yorqin misol bo'la oladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

DXSh davlat bilan xususiy sektor o'rtasidagi uzoq muddatli hamkorlik sifatida tasvirlanadi. Shuhrat G'ulomovning tadqiqotida DXSh davlat va biznes resurslarini birlashtirib, infratuzilma va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni maqsad qiluvchi mexanizm sifatida izohlanadi. Muallif muvaffaqiyatli loyihalarning muhim tamoyillarini shaffoflik, raqobat, tenglik va korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik deb belgilaydi. Ozodbek Mo'ydinov esa DXShni shunday ta'riflaydi: xususiy sherik o'zining moliyaviy, texnik va boshqaruv resurslari bilan loyihani harakatga keltiradi, davlat esa zarur aktivlarni (masalan, yer) taqdim etadi va tayyorlov bosqichini moliyalashtiradi. U DXShning turli shakllari (konsessiya, investitsiya shartnomalari) hamda ularning huquqiy va iqtisodiy asoslarini tahlil qiladi. Xalqaro tashkilotlar DXShni turlicha talqin qiladi. OECD PPPni davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro maqsadli kelishuv sifatida ko'radi, bunda xizmat va foyda bo'linadi hamda risklarning katta qismi xususiy sherikka yuklanadi. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ) PPPni an'anaviy ravishda davlat tomonidan taqdim etilgan infratuzilma aktivlarini xususiy ta'minlash shakli sifatida talqin qiladi. BMT DXShni 30 yilgacha bo'lgan muddatga mo'ljallangan shartnoma deb hisoblaydi, bunda investorlar ko'proq risk va nazoratni o'z zimmasiga oladilar. Jahon banki esa PPPni xususiy tomon muhim risk va boshqaruv mas'uliyatini o'z zimmasiga oladigan uzoq muddatli shartnoma sifatida belgilaydi.

Bu turli ta'riflar DXShning asosiy konseptini – risklarni xususiy sektorga uzatish, infratuzilma yoki xizmatlarning yaxshilanishi va davlat bilan xususiy sherikning uzoq muddatli kelishuvi – yoritadi. Xalqaro amaliyotda DXSh asosan transport, energetika, suv ta'minoti, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarida qo'llanilmoqda. 2025-yildagi bibliometrik tahlil shuni ko'rsatdiki, PPPlar dunyo bo'ylab infratuzilma kamchiliklarini bartaraf etishning "hal qiluvchi mexanizmi"ga aylanmoqda, chunki an'anaviy davlat moliyalashtirish mexanizmlari, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda, yetarli bo'lmay qolmoqda. Shu sababli, xususiy investitsiya, texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish orqali DXSh loyihalarining samaradorligi oshadi. Mazkur bibliometrik tahlil DXShni global tendensiyalar bilan bog'laydi. Ko'plab davlatlar 1990-yillardayoq PPP tizimlarini institutsionalizatsiya qilib, BOT (build–operate–transfer), DBFO (design–build–finance–operate) kabi modellarni joriy etgan. Jahon banki, XVJ va boshqa moliya tashkilotlari DXShni iqtisodiy rivojlanish va yangi infratuzilmaga sarmoya jalb qilishning muhim strategiyasi sifatida targ'ib qilmoqda. Shu bilan birga, DXSh loyihalari murakkab tuzilishga ega bo'lib, ularni samarali amalga oshirish uchun mustahkam huquqiy, moliyaviy va institutsional baza, aniq risk taqsimoti va shaffof nazorat tizimlari zarur.

Adabiyotlarda DXShning afzalliklari qatoriga quyidagilar kiradi: moliyalashtirish va samaradorlik – xususiy sektor kapitali va tajribasidan foydalanish orqali infratuzilma qurilishi va boshqaruvi tezlashadi, bu esa davlat uchun xarajatlarni qisqa muddatda kamaytiradi; innovatsiya va boshqaruv – xususiy sheriklar innovatsion texnologiyalar, masofaviy boshqaruv va xizmat sifatini oshiruvchi uslublarni joriy etadi; davlat byudjetidagi yukning kamayishi – xarajatlarni xususiy sherik zimmasiga o'tadi va davlat mablag'larini boshqa ijtimoiy sohalariga yo'naltirish imkoniyati yuzaga keladi. Biroq DXSh bir qator kamchilik va xavflarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Murakkablik va moliyaviy majburiyatlar – DXSh shartnomalari yirik, murakkab va uzoq muddatli bo'lib, ularda moliyaviy majburiyatlar va risklarni to'g'ri baholash talab etiladi. Risklarni taqsimlashda noaniqlik yuzaga kelsa, xususiy sheriklar to'lovlarni oshirishi yoki xizmat sifatini pasaytirishi mumkin. Shaffoflik muammolari – tenderlar jarayonidagi noaniqliklar yoki shartnoma shartlarining shaffof emasligi korrupsiya xavfini kuchaytiradi; monitoring tizimi yetarli bo'lmasa, ijtimoiy adolat buzilishi ehtimoli ortadi. Ijtimoiy ta'sir nuqtayi nazaridan, hayotiy xizmatlar (suv, energetika, sog'liqni saqlash) bo'yicha DXSh loyihalari foyda olishga yo'naltirilsa, ijtimoiy zaif guruhlar zarar ko'rishi mumkin, bu esa jamoatchilik noroziligiga olib keladi.

2019-yilda O'zbekistonda "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun¹ qabul qilinishi bilan DXShga asosiy huquqiy baza yaratildi. Shundan so'ng 2024-yil avgust oyida Prezident qarori bilan DXSh loyihalarini markazlashtirilgan tarzda boshqarish uchun DXSh Loyihalari Markazi tashkil etildi. G'ulomov va Mo'ydinovning tahlillarida O'zbekiston misolida DXShning bir qator infratuzilma va ijtimoiy loyihalarda qo'llanilishi ko'rib chiqiladi.

1 <https://lex.uz/ru/docs/-4329270>



Xususan, yirik energetika stansiyalari, yo'l infratuzilmasi, shuningdek sog'liqni saqlash va ta'lim obyektlari xususiy sheriklar ishtirokida qurilmoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2021–2024-yillarda mamlakatda DXSh loyihalari portfelining qiymati 6,2 milliard AQSh dollaridan 31 milliard dollargacha oshgan va uning asosiy qismi energetika sohasiga to'g'ri keladi. Mahalliy adabiyotlarda DXShning ijobiy jihatlari – yangi infratuzilma, byudjet tejalishi va xorijiy investitsiyalar – bilan birga, kamchiliklar ham muhokama qilinadi. Masalan, DXSh majburiyatlari kelajakda davlatning byudjet xarajatlarini oshirishi mumkin, chunki uzoq muddatli shartnomalar bo'yicha to'lovlar rejalashtiriladi. Moliyaviy risklar va iqtisodiy beqarorlik investorlar qiziqishini pasaytirishi, tender jarayonidagi shaffoflikning yetarli bo'lmasligi esa korrupsiya xavfini kuchaytirishi mumkin. Shu sababli, adabiyotlarda DXSh siyosatini takomillashtirish va shaffof monitoring tizimlarini yaratish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda normativ-huquqiy, statistik va ilmiy adabiyotlar tahlil etildi. DXSh loyihalari bo'yicha O'zbekistonning qonun hujjatlari (qonun va qarorlar), rasmiy hisobotlar hamda soha bo'yicha statistik ma'lumotlar o'rganildi. Shuningdek, pedagogika va iqtisodiyot sohasidagi ilmiy maqolalar va tahliliy manbalar o'zaro solishtirildi. Tahliliy yondashuvda ta'lim sohasi DXSh loyihalarining samarasi va cheklovlari, shuningdek xalqaro tajribalar bilan mosligi baholandi. Metodologiyada huquqiy tahlil (DXSh qonunchiligi va normativ-huquqiy aktlar), taqqoslovchi tahlil (xalqaro tajriba) va statistika (DXSh loyihalarining amaliy ko'rsatkichlari) usullaridan foydalanildi. Ushbu yondashuv oliy ta'limda DXSh amaliyotini to'liq tahlil qilish va taklif qilingan islohotlarni tartibga solish vazifasini bajarishda qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Natijalar shuni ko'rsatadiki, DXSh loyihalari oliy ta'lim infratuzilmasini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalqaro tajriba guruhlaridan olib borilgan tahlillar kollej va universitetlarning o'z infratuzilmasini — ta'lim binolari, talabalar yotoqxonasi, o'quv laboratoriyalari va boshqa xizmat ko'rsatish obyektlarini — aynan PPP modellaridan foydalanib kengaytirayotganini ko'rsatadi. Masalan, AQShning Merced kampusi tajribasida PPP shartnomasi asosida kampusni 10 ming qo'shimcha o'rin bilan kengaytirish uchun 600 million dollarlik obligatsiyalar chiqarilgan bo'lib, bu loyiha universitetning moliyaviy yukini kamaytirgan holda xususiy kapitalni keng jalb etish imkonini yaratgan.

O'zbekistonda ham DXShning oliy ta'limdagi dastlabki yo'nalishi talabalar yotoqxonalarini qurish bo'ldi. Mazkur strategiya davlatga infratuzilma qurilish xarajatlarining ma'lum qismini xususiy sektor bilan bo'lishish imkonini berdi hamda talabalar yashash sharoitlarini yaxshilashga xizmat qildi. Amaldagi tartiblarga ko'ra, yotoqxonalarda joylarning yarmi davlat tomonidan belgilangan arzon narxlarda, qolgan yarmi esa bozor mexanizmlari asosida taqdim etiladi. Shu bilan birga, talabalar uchun davlat subsidiyasi tizimi joriy qilingan bo'lib, har bir talaba uchun bazaviy hisoblash miqdorining ma'lum baravari miqdorida to'lovlarning qisman kompensatsiya qilinishi nazarda tutiladi. Bu mexanizm davlat va xususiy sherik o'rtasida risklarning mutanosib taqsimlanishiga xizmat qiladi.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, DXSh yondashuvlari orqali moliyalashtirilgan loyihalar infratuzilma obyektlaridan samarali foydalanishni ta'minlab, ularning uzoq muddatli ekspluatatsiya barqarorligini oshiradi. Bundan tashqari, DXSh asosida qurilgan obyektlarda narx siyosatining tartibli ishlab chiqilishi talabalarga maqbul sharoitlar yaratish bilan birga xususiy investorning moliyaviy manfaatlarini ham hisobga oladi.

Shunga qaramay, oliy ta'lim sohasida DXSh loyihalarining amaldagi hajmi hali ham nisbatan cheklangan. Mutaxassislar fikricha, yotoqxonalar qurilishidan tashqari ilmiy laboratoriyalarni modernizatsiya qilish, zamonaviy ta'lim jihozlari bilan ta'minlash, texnoparklar barpo etish, shuningdek qo'shma o'quv dasturlarini ishlab chiqish kabi yo'nalishlarda ham DXSh mexanizmlaridan keng foydalanish imkoniyati mavjud. Bu yo'nalishlarning rivojlantirilishi oliy ta'lim tizimining modernizatsiya sur'atlarini yanada tezlashtirib, davlat xarajatlarini kamaytirish va xususiy sektorni ta'limga keng jalb etish imkonini beradi.

DXSh loyihalarining oliy ta'lim tizimida joriy etilishi eng avvalo talabalar uchun yotoqxonalar infratuzilmasini kengaytirish orqali namoyon bo'lmoqda. Prezident matbuot xizmati ma'lumotlariga ko'ra, DXSh asosida amalga oshirilgan 57 ta loyiha 29 mingdan ortiq talabalar uchun turar joy bilan ta'minlanishiga imkon yaratgan. 2022-yilda ham ushbu yo'nalishda sezilarli o'sish kuzatildi: davlat buyurtmasi va DXSh modeli asosida umumiy qiymati 43,2 mlrd so'mlik dastur doirasida yirik talabalar yotoqxonalar barpo etilib, ularning umumiy quvvati 92 351 o'ringa yetkazildi. Natijada talabalarni yotoqxonalar bilan qamrab olish darajasi 43,7 foizga ko'tarildi. 2022-yil davomida respublika bo'yicha jami 60 ta talabalar turar joyi loyihasi amalga oshirilayotgani qayd etilgan bo'lib, ulardan 39 tasi DXSh modeli asosida qurilmoqda. Bu loyihalar 20 mingdan ortiq talabaga mo'ljallangan o'rinlarni yaratishni ko'zda tutadi. Mazkur dinamika DXSh mexanizmining oliy ta'lim infratuzilmasini kengaytirishda real natijalar

berayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, DXSh modeli oliy ta'lim tashkilotlarini ko'paytirish va diversifikatsiya qilishda ham qo'llanilmoqda. 2022-yilda 33 ta nodavlat oliy ta'lim muassasasi tashkil etilgan bo'lib, ularning bir qismi bevosita DXSh shartlari asosida yo'lga qo'yilgan. Bu esa raqobat muhitini rivojlantirish, qamrov darajasini oshirish, hududiy tengsizliklarni qisqartirish hamda ta'lim xizmatlarining sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, mavjud qamrov darajasi hali ham talab etilgan ko'rsatkichdan pastligini ta'kidlab o'tish lozim.

Talabalar sonining keskin o'sishi fonida turar joylar bilan ta'minlash darajasi 2022-yil oxirida 43,7 foizni tashkil etdi, bu esa infratuzilmani kengaytirish bo'yicha qo'shimcha yirik loyihalar zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, DXSh modeli doirasida ilmiy laboratoriyalar, zamonaviy o'quv jihozlari, axborot-resurs markazlari va texnoparklarni rivojlantirish bo'yicha loyihalar ham muhokama qilinmoqda. Hozircha bu yo'nalishdagi loyihalar keng qamrovda joriy etilmagan bo'lsa-da, ular oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning istiqbolli mexanizmlaridan biri sifatida ko'rilmogda. Umuman olganda, DXSh loyihalarining oliy ta'limdagi qo'llanilishi mavjud infratuzilma yetishmovchiliklarini qisqa muddatda bartaraf etish, xususiy sektor resurslaridan samarali foydalanish va ta'lim xizmatlari sifatini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

DXSh tizimini takomillashtirish bo'yicha ilgari surilayotgan takliflar, avvalo, loyihalarni oldindan baholash va monitoring mexanizmlarini kuchaytirishga, shaffoflikni ta'minlashga hamda xalqaro normativlarga mos keluvchi yondashuvlarni joriy etishga qaratilgan. 2024-yil 30-oktabrda qabul qilingan hukumat qarorida DXSh sohasini kompleks rivojlantirish bo'yicha ustuvor chora-tadbirlar belgilangan. Ushbu hujjatga ko'ra, Asiya taraqqiyot banki va Jahon banki bilan hamkorlikda loyihalarni xalqaro standartlarga moslashtirish, shuningdek, "Source" xalqaro platformasida barcha yirik DXSh loyihalarini yagona tartibda ro'yxatdan o'tkazish mexanizmini joriy etish ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, kelgusida tanlab olinadigan DXSh loyihalari uchun maxsus uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqilishi va ular xalqaro moliyaviy institutlar metodologiyasiga muvofiq tasdiqlanishi rejalashtirilgan. Bundan tashqari, 2025-yil 1-aprelga qadar DXSh qonunchiligiga xorijiy amaliyot va ilg'or tajribalarga asoslangan o'zgartirishlar kiritish tashabbusi ilgari surilgan bo'lib, bu tartibotlar amaldagi huquqiy bazani samaraliroq qilishga qaratilgan.

Takomillashtirishning yana bir muhim yo'nalishi — DXSh loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini mustahkamlashdir. Bu maqsadda DXSh jamg'armasi tashkil etilib, loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy manbalar diversifikatsiya qilinmoqda. Jamg'arma orqali davlat budjeti, xalqaro moliya institutlari va boshqa manbalardan keladigan resurslar samarali boshqarilishi, yirik investitsiyaviy loyihalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. DXSh loyihalarining sifatli ijro etilishini ta'minlash uchun mahalliy boshqaruv organlari ham "yo'l xaritalari" asosida aniq vazifalar bilan ta'minlangan. Ular loyihalarning hududiy darajada muvofiqashtirilishini, yer ajratish, ruxsatnomalar, texnik shartlar va boshqa jarayonlarning o'z vaqtida hal qilinishini ta'minlaydi. Umuman olganda, taklif etilayotgan ushbu islohotlar DXSh tizimini yanada samarali, shaffof va xalqaro talablarga mos mexanizmga aylantirishga qaratilgan. Bu esa, o'z navbatida, DXSh loyihalaridan olinayotgan natijalarni yaxshilash, ularning iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasini oshirish va investorlarga bo'lgan ishonchni mustahkamlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati. "Davlat-xususiy sheriklik loyihalari bo'yicha takliflar taqdimot qilindi", 28.02.2025.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qaror №563, 09.09.2021 "Respublika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/-5622798>
3. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida" (O'RBQ-537-son, 10.05.2019). <https://lex.uz/ru/docs/-4329270>
4. Ta'lim sohasida 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida amalga oshirilgan ishlar. www.review.uz
5. Lundy K., Ladd H. "How the right public-private partnerships in higher education provide value", EY-Parthenon, 2018.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qaror №720, 30.10.2024 "Davlat-xususiy sheriklik sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/uz/docs/-7180726>

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100